



## “QISSASI RABG‘UZIY” ASARINING O‘ZIGA XOSLIGI VA QIYOSI

**Muallif:** Hulkar Saidmurodova<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Termiz davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 1-bosqich magistranti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20208882>

### ANNOTATSIYA

Nosiruddin Rabg‘uziyning hayoti, ham diniy, ham adabiy asar bo‘lmish “Qissasi Rabg‘uziy”ning yaratilishi, asarning ilmiy-tarbiyaviy ahamiyati, kitobxonlar ommasidagi o‘rni haqida so‘z boradi. Bundan tashqari maqolada yozuvchi asari qo‘lyozmasining turkiyalik matnshunos Aysu Ata tomonidan amalga oshirilgan, 2019-yilda Anqarada nashr etilgan tabdil nashrlari va shu bilan birgalikda 1991-yilda o‘lkamizda Ergash Fozilov tomonidan nashr etilgan tabdil bilan qiyoslangan o‘rinlari ham joy olgan. Aysu Ata tabdil nashri, Ergash Fozilov tabdili hamda asarning asl qo‘lyozmasining bir-biriga qay darajada yaqinligi, orasidagi o‘zaro farqlar ham keltirib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** “Qissasi Rabg‘uziy”, Nosiruddin Rabg‘uziy, Aysu Ata, Ergash Fozilov, qo‘lyozma, tabdil, Anqara, nashr, qiyos.

“Qissasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek nasridagi eng yirik hamda qadimiy asarlar sirasiga kiradi. Asar muallifi Nosiriddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziy haqida ma‘lumot ko‘p emas. O‘zi haqidagi ma‘lumotlarni faqatgina asari orqaligina bilishimiz mumkin. Yaqin paytlargacha Rabg‘uziy Xorazmda tug‘ilgan deb hisoblar edik. Ammo izlanishlar natijasida adibning tug‘ilgan yeri, ya‘ni To‘qbug‘a beklik qilgan qal‘a-Raboto‘g‘uz hozirgi davr manbalarida To‘qqal‘a nomi bilan qayd etilib, u hozirgi Qoraqolpog‘iston Respublikasi Nukus shahrida ekanligi aniqlandi [1]. O‘zi Rabot shahrining qozisi bo‘lgan. Yozuvchining faqatgina shu asari bizgacha yetib kelgan. Asarda adib o‘zi haqida ma‘lumot berib o‘tadi. Bu ma‘lumotlar muqaddima, ayrim qissalardagi izohlar hamda xotima orqali yetib kelgan. Rabg‘uziyning shu yolg‘iz asari orqali ham uning qanday inson ekanligini, adibning badiiy mahoratini bilish qiyin emas. Chunki muallif asarda mansabi, boyligi, shaxsiy hayotini emas, ilm va diniy maqsadni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Asarni yozishdan maqsadi haqida muqaddimada muallif shu paytga qadar anbiyolar haqida yozilgan asarlarning ba‘zilari mustaqil, ba‘zilari esa nomustaqim ekanligi, shu sababli adib o‘zi o‘qish uchun yaroqli bir kitob yozish niyatida ekanligini aytadi. Va shu bilan bir qatorda asar bir yillik mehnat natijasi ekanligini ham ta‘kidlab o‘tadi. Nosiriddin Rabg‘uziy davriga qadar ham anbiyolar haqida asarlar mavjud bo‘lgan, ammo bu asarlarning ko‘pchiligi arabcha yoki forsha tilda yozilgan edi. Ammo, Nosiriddin Rabg‘uziy buni barcha o‘quvchi ixlosmandlariga tushunarli bo‘lishi uchun sodda va ravon turkiy tilda yozdi. Bu esa muallif asarining ko‘plab kitobxonlartomonidan o‘qilishiga sabab bo‘ldi.

Asar nomi turli manbalarda turlicha shakl bilan ataladi. Masalan, “Qissasi Rabg‘uziy”, “Qissasi Rabg‘uziy”, “Qisas ar-Rabg‘uziy” shakllarida keladi. Ammo 1948-yilda Gronbek tomonidan Britaniya muzeyidagi qo‘lyozma asosida amalga oshirilgan

faksimile nusxasida yozuvchining o'zi asarni quyidagicha nomlaganini ko'rishimiz mumkin:

*بردوک آت ریغوزی قصص تیبیا بیلکای بات ایشیتکن [2:369]*

Bu barcha yanglishliklarga barham berdi. Shundan so'ng biz ham asarni "Qissasi Rabg'uziy" deb atay boshladik.

Muallif asarni badiiy, diniy, ma'rifiy jihatdan go'zal yoza olgan. Asar 72 katta va kichik qissalardan iborat. Ba'zi qissalar nihoyatda yirik bo'lsa, ba'zilari kichik. Har bir payg'ambarga bag'ishlangan qissa boshlanganda kichik bir nazm berilgan. Bu nazmda shu anbiyo sifati ulug'lanib ko'rsatilgan. Asar faqatgina payg'ambarlar hayotiga bag'ishlanmagan, balki butun insoniyat uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asar hisoblanadi. Kitob Ollohga bo'lgan hamd, so'ngra payg'ambarimiz Muhammad Mustafo s.a.v.ga na't bilan boshlanadi. Undan so'ng olamning yaralishi, osmon va yerni qay tarzda yaratgani, undan so'ng Odam alayhissalom va Havvo onamizning yaratilishi, ularning jannatga kirishi, Iblis vasvasasiga tushishi, jannatdan quvilishidan tortib to ikki olam sarvari hisoblanmish payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning hayoti va faoliyati haqida qissalar keltirilgan. Dastlabki qissa Bani al-jonning yaratilishi haqida, ikkinchi qissa Odam alayhissalom haqida, uchunchi qissa Qobil va Hobil qissasi, to'rtinchi qissa hazrat Shis alayhissalom haqida, beshinchi qissa hazrat Idris alayhissalom qissasi, oltinchi qissa farishtalar Horut va Morutga bag'ishlangan, yettinchi qissa Nuh nabi alayhissalomga, sakkizinchi qissa Avj ibn Anuq qissasi, to'qqizinchi qissa Solih payg'ambarga, o'ninchi qissa hazrat Hud payg'ambarga, o'n birinchi qissa Ibrohim halilullohga, o'n ikkinchi qissa hazrat Ismoil halilulloh bayoniga, o'n uchunchi qissa hazrat Ismoil zabihulloh bayoniga (bu qissa Ichida Ka'baning bino etilishi ham bor), o'n to'rtinchi qissa Ishoq payg'ambarga, o'n beshinchi qissa hazrat Lut alayhissalomga, o'n oltinchi qissa hazrat yaqub payg'ambarga, o'n yettinchi qissa hazrat Yusuf alayhissalom payg'ambarga, o'n sakkizinchi qissa hazrat Ayub alayhissalom voqealariga, o'n to'qqizinchi qissa Shuayb alayhissalomga bag'ishlangan. Bu qissalarning ba'zilari nihoyatda katta bo'lsa (masalan, Nuh nabi alayhissalom va Yusuf qissalari anchagina sahifa), ba'zilari esa bir necha sahifadagina (Avj ibn Anuq, Lut alayhissalom qissasi) tashkil topgan. Yana asardagi qissalarning barchasi payg'amlar hayotiga emas, yerga tushgan farishtalarga ham bag'ishlangan. "Qissasi Rabg'uziy" asarida yozuvchi Ollohning rasuli va elchilarini ayrim o'rinlarda payg'ambar deb, ayrim o'rinlarda esa yalavoch deb keltirganligiga guvoh bo'lamiz. Yalavoch kalimasi fors tilida, payg'ambar kalimasi esa arab tilida Ollohning odamlarni to'g'ri yo'lga boshlash uchun jo'natgan elchilariga nisbatan qo'llaniladi.

Asarda Odam alayhissalom yaratilgandan keyingi barcha voqea va hodisalar keng talqin qilingan. Odam alayhissalomning jannatdan tushishi, gunoh va ma'siyat nima ekanligi, do'zax va jannatga kimlar kirishi, yer yuzidagi dastlabki qon to'kilish, ilk azon, ilk nikoh xutbasi, ilk namoz, ilk ro'za, ilk qurbonlik, ilk she'r, ilk janoza namozi - barcha-barchasi haqida keng ma'lumotlar berilgan. Kitobda islom dinining arkonlari oddiy mahalliy xalq uchun oson usulda tushuntirib berilgan. Asarning tili shunchalik sodda va ravonki, qay darajadagi inson bo'lishidan qat'iy nazar asarni bemalol tushuna oladi. Bundan tashqari, har bir qissani yozishda muallif Qur'on oyatlari va hadislarga yuzlangan va bu asarning badiiy jihatini yanada oshirgan. Shu bilan birgalikda asarda muallif faqatgina diniy rivoyatlar bilan cheklanib qolmasdan, balki xalq og'zaki ijodiga ham yuzlangan, ya'ni xalq tilidan olingan namunalar bilan

qiyoslab, kerak o'rinlarni asarga yozgan. Bu yuzlanish asarning xalq yuragiga kirib borishiga zamin yaratgan. Rabg'uziy asarda latifalar, bahor Madhi, she'rlar, g'azallar ham keltirib o'tgan. Har bir anbiyo qissasini tavsiflashda xalq tilidan olingan hikoyatlar hamda boshqa yozuvchilarning shu payg'ambar haqida yozilgan asarlaridan ham keng foydalanadi va bu hikoyatlar bilan qiyoslaydi. Shu bilan bir qatorda yozuvchi asar yozish jarayonida Qur'on Karimga, Abul Is'hoq Nishopuriyning "Qisas ul-anbiyo" (aynan Nuh alayhissalom qissasida bu kitob bilan birgalikda solishtiradi) nomli forsha asaridan hamda Vahb ibn Munabbihning "Ka'b ul-axror" nomli arabcha kitobini o'rganadi hamda kerak o'rinlarda asarda Qur'oni Karim oyatlari, hadislar va diniy mazmunda yozilgan nazmdan ham parchalar keltirib o'tadi. Asar ichida badiiy to'qimalardan keng foydalanganligi uchun asarni to'laqonli diniy asar deya olmaymiz, balki ham diniy, ham badiiy asar deyishimiz mumkin.

"Qissasi Rabg'uziy" asari xalq orasida "Qissasi ul-anbiyo" tarzida judayam mashhur bo'lgan. Asar baxshi va oqinlar tomonidan ham sevib kuylangan. Anbiyolar haqida islom olimlaridan Imom at-Tabariyning "Tarix ar rasul val muluk" asari payg'ambarlar haqidagi tarixiy hujjat hisoblanadi. Ibn Kasirning "Qissasi ul-anbiyo", As Sa'labiyning "Arois al majolis fi "Qissasi al-anbiya" asari, Abul A'lo Mavludiy va Sayyid Qutb kabi yozuvchilarning anbiyolar haqida yozilgan asarlari ahamiyatga molikdir. Bu asarlar asrlar oshsa-da payg'ambarlar haqidagi eng muhim hamda ishonchli manbalardan bo'lib, hozirgi kunga qadar ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.

Asarning tili ravon bo'lganligi uchun ham bu asar bir necha marotaba ko'chirilgan. Bu nusxalar dunyoning turli mamlakatlari ilmiy fondlarida saqlanadi. Toshkent Sharqshunoslik Instituti Qo'lyozmalar Fondida ham asarning bir necha nusxalari saqlanmoqda. Shu bilan bir qatorda Termiz Islom tadqiqot markazida ham "Qissasi Rabg'uziy" asarining toshbosma nusxasi bor. Qo'lyozma va toshbosma nusxalarning hajmida ham farqlar kuzatiladi. Bundan tashqari barcha qo'lyozma va toshbosma nusxalar o'rtasida til uslublarida anchayin farqlar ko'zga tashlanadi. Muallif davriga eng yaqin deb qaraladigan XV asrda ko'chirilgan Britaniyaning London muzeyida saqlanadigan qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan eng qadimiy nusxa hisoblanadi. Undan keyingi qo'lyozma, toshbosma va tipografik nusxalarda o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Misol qilib oladigan bo'lsak, Rabg'uziy davridagi til xususiyatlar bilan keyingi davrda ko'chirilgan til xususiyatlar hamda so'zdagi o'zgarishlar ham mavjud. London nusxasidagi so'zlar qadimiy turkiy so'zlar bo'lib, muallif asarda aynan shu so'zlardan foydalangan va Turkiya xalqi hozirgi kunga qadar ham bu so'zlarni muomalada ishlatib kelmoqdalar. Bizning tilimizdagi "uy" so'zi turk tilida "ev" deb ishlatiladi [3], turk tilidagi "bulmak", ya'ni hozirgi o'zbek tilidagi "topmoq" so'zi ham qo'lyozmada "bulmak" [4], "o'z" so'zi ham "kendi"[5] nomi bilan, "ertasi" so'zi "yarindasi" [6] so'zi bilan, "ayoli" so'zi esa "evlugi" shaklida keladi. Bu so'zlardan hozirgi kunga qadar ham turklar muomalada keng foydalanib kelishadi. Bundan ko'rinadiki, qadimgi turkiy tilimizni hozirgi turklar bizdan farqli o'laroq aynan saqlab qolishgan. Bu so'zlar keyingi davrda ko'chirilgan nusxalarda o'zgarib borganligining guvohi bo'lamiz.

Asarning 1991-yilda o'lkamizda chop etilgan, Ergash Fozilov tomonidan amalga oshirilgan tabdilida juda katta o'zgarishlar mavjud. Chunki bu tabdil nashr mustaqillikka endi erishgan paytlarimizda amalga oshirilgani uchun ham hali ruslarning ta'siri sezilarli darajada bo'lgan. Ayrim o'rinlarda Qur'on oyatlari hamda hadislardan namunalar tushib qolgan, ayrim so'zlar esa mutlaqo boshqacha tabdil va talqin qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, asardagi "aymishlar" so'zi

“temishlar” tarzida, Nuh alayhissalom qissasida Nuhning asl ismi qo‘lyozmada “Tashakkur” deb, tabdilda esa “Yashkir” tarzida, ayrim o‘rinlarda so‘zdagi bir “n” tovushi tushib qolgan (boshiga, ustiga, o‘rtasida, oldida), qo‘lyozmada jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -qo shaklida ham kelgan, tabdilda esa -ga shaklida uchraydi: Nuhqo-Nuhga, Iblisqo-Iblisga, kemig‘a-kemiga. Bundan tashqari qo‘lyozmada “f” ishlatilgan so‘zlar tabdilda “v” harfi bilan kelgan: suf-suv, ef-ev, yalafoch-yalavoch, telfa-telva, efluk-evluk, efurmoq-evurmoq, o‘furmoq-o‘vurmoq, tefa-teva, tafuq-tavuq, tofar-tovar, of-ov, yofumaz-yovumaz, kifurgil-kivurgil... Yana chiqish kelishigi qo‘shimchasi -dan o‘rniga o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi -da ishlatilgan holatlari ham bor: oldidan-oldida, azoqindan-azoqinda kabi.

Aysu Ata tomonidan 2019-yilda amalga oshirilgan tabdil o‘quvchilar uchun nihoyatda qulay. Sababi qo‘lyozmadagi har bir satrni tabdil jarayonida belgilab keyin tabdilni keltirgan. Masalan, 2r-sahifasi 16-qator deb belgilagan. Qur‘ondan keltirilgan oyatlarni arabcha asl holatida aynan keltirib, qaysi sura, qaysi oyatdan olinganligini ham yozgan. Shu bilan birgalikda kitob oxirida tushunishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohi qaysi sahifa qaysi qatorda uchrashigacha berilgan. Bu esa qiyos qilayotgan matnshunos uchun juda ham katta qulaylik yaratadi. Bu tabdil XV asrda yaratilgan deb qaraladigan britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozma asosida amalga oshirilgan. Bunda xatoliklar nisbatan kamroq.

Qiyoslash jarayonida shu narsa anglashildiki, Ergash Fozilov tabdilini biz so‘zma-so‘z tabdil deya olmaymiz, sababi bu tabdil hozirgi tilimizga moslashtirilgan. Aysu Ata tabdili esa aynan so‘zma-so‘z tabdil qilingan nashr hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, asar hozirgi kunimizga kelgunicha bir qator o‘zgarishlarga uchragan. Bu esa asarning asl ma‘nosidan uzoqlashishga sabab bo‘lgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Зоҳидов П. Кун туғардин кун ботарға сўзи етган зот // Ўзбек адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2002. –2-февраль; Абдушукуров Б. Эски туркий тили адабий тил лексикаси. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2015. – Б. 9.
2. Aysu Ata. Nasiruddin bin Burhaneddin Rabguzi. Kisasu'l-Enbiya. – Ankara, 1997. – S. 369.
3. Рабғузий Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
4. Рабғузий Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. –Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 272 б
5. Nosiriddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. 2-kitob. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2024. – 245 b.
6. Nosiriddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. 1-kitob. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2024. – 256 b.
7. قصص النبي ا Самарқанд тошбосмаси. 1904. – 528 б.